

MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xasanova Gulbibi Abdurashitovna
Fransuz tili amaliy fanlar kafedrası o'qituvchisi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
28-dilya@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi doirasida maqollarni o'rganishning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, ularning semantik, poetik, lingvomadaniy va funksional xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada maqollarning inson tafakkurini aks ettirishdagi o'rni hamda jamiyat tajribasini ifodalashdagi ahamiyati ilmiy va badiiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: maqol, folklorshunoslik, semantika, lingvomadaniyat, poetika, xalq donoligi, badiiy ifoda

Abstract. This article examines the aspects of studying proverbs in folklore studies. Particular attention is given to their semantic, poetic, linguocultural, and functional features. The paper also highlights their role in reflecting thinking and their artistic value. Proverbs are analyzed as an important expression of folk wisdom from a scientific and artistic perspective.

Keywords: proverb, folklore studies, semantics, linguoculture, poetics, folk wisdom, artistic expression

Аннотация. В данной статье рассматриваются аспекты изучения пословиц в фольклористике. Особое внимание уделяется их семантическим, поэтическим, лингвокультурным и функциональным характеристикам. Также анализируется их роль в отражении народного мышления и художественная ценность. Пословицы исследуются как важное проявление народной мудрости с научно-художественной точки зрения.

Ключевые слова: пословица, фольклористика, семантика, лингвокультура, поэтика, народная мудрость, художественное выражение

Maqollar – xalq folklorchiligining eng yorqin merosidir. U xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavhari hisoblanadi. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Maqollar xalq og'zaki ijodi yorqin mahsuli hisoblanadi. Maqollar shakliga ko'ra ixcham, ammo chuqur mazunga ega bo'lgan janrlardan biridir. Aytishimiz mumkinki, maqollarning vujudga kelishiga sabab, xalqning ko'p asrlar davomida, insonlarning hayotiy kuzatishlari, turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribalariga asoslanganligini ko'rib o'tamiz. Shu uchun ham har bir maqolning mazmun- mohiyatida ko'p asrlik o'ziga xos tajriba va hayotiy tarbiyaviy ahamiyati aks etadi. Xalq maqollari uzoq yillar davomida turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda bir necha martalab sinovdan o'tib bizgacha yetib kelgan. Har bir xalqning va har bir millatning o'ziga xos udum hamda marosimlari bo'lganidek, maqollari ham mavjuddir. Maqollar o'zgarmaydi, ya'ni maqollarning ham kelib chiqishi xalqning bir necha yillik tajribasi asosida yuzaga kelgan. Ular tarixiy manbalar va xalq orasida turli xil atamalar bilan nomlanib kelgan. Masalan: maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora va boshqalar. Aytishimiz mumkinki, ularning vujudga kelishi bilan nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillari ham qiziqib qolganlar. Jumladan,

etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar.

Maqollar – xalq og'izaki ijodi bo'libgina qolmay, balki xalq tajribasi, uning nafasi, yig'isi, shodligi va sevinchi, qayg'usi va ovunchi, xalq haqiqati, uni to'g'ri yo'lga eltuvchi mayoq vazifasini ham bajarib kelgan. Ular uzoq yillar mobaynida inson turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda ko'pgina sinovlardan o'tib kelgan.

Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Ularning ko'pchiligi insonlar orasidagi o'ylab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she'riy voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir[1,68]. Biz bilamizki, maqolning mataldan farqi: "matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko'ra qo'llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifoda hisoblanadi. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr, xulosa ichiga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi". O'zbek maqollarining o'rganilish tarixi XX-asrning 30-yillariga borib taqaladi. O'zbek xalq durdonalarini, o'zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqollarni to'plash va o'rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning asarlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, maqollarni o'rganishning yangi struktur sematik yondashuvi yuzaga kelgan. XI asrning buyuk olimi M. Koshg'ariy ham o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalanib o'tgan. Bu asar yolg'iz o'sha davr tilidagi so'zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda ham butun O'rta Osiyo doirasida, ya'ni, Yuqori Chindan tortib Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan keng va katta hududda yashagan urug', qabila, xalqlar, ularning tillari, o'sha davr xalq og'zaki ijodiy maqollari to'g'risida ham ma'lumot beruvchi noyob filologik asarlar sirasiga kiradi. Shunday ekan, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og'zaki ijodining butun yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, ayniqsa, xalq maqollarini o'rganuvchi ilmiy fikrlarni sharhlashda xalq maqollariga katta e'tibor bergan, ilk marta xalq maqollarini yig'uvchi asarlar qatoriga kiradi. Ushbu asari haqida M. Koshg'ariyning o'zi shunday yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sahlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim"[7, 44]. Demak, o'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganish XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan boshlab berilgan degan fikrda o'z aksini topadi. Adibning mashhur "Devoni lug'otit turk" asarida 275 ta maqol keltirib o'tilgan. Bu sohada ham buyuk fransuz olimlari ham samarali ishlar olib borishgan. Masalan, tilshunos olimlardan Nida ham bir xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish joiz ekanligi to'g'risida ta'kidlab o'tadi. Yana bir tilshunos va folklorshunos olim V.Teliya ham madaniyatni til bilan bog'liqligida paremiologiya sohasini ta'kidlab o'tadi. Tadqiqotchilar qadimgi shohlardan Abbos Safoviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma'lumot berib o'tganlar. Afsuski, bu majmua bugungi kungacha yetib kelmagan. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tamiz. Misol uchun, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq o'zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir. Xalq maqollarini ilm obyektini sifatida o'rganish va to'plash XX asr boshlariga to'g'ri keladi. O'zbek xalq maqollarini to'plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostromovning xizmati benihoya katta. Bir qancha

o'zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Masalan, Sh.Shorahmedov, X.Sharafiddinov va X.Abdurahmonovning maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga sazovordir. Shu qatorda, B.A.Soatov[6,55] o'zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she'riy xususiyatlarini aniqlagan. "Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo'lishini yaxshi bilamiz, ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san'at bilan deyarli ikkalasi bir xildir. Fan va san'at, gapga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar. Chunki, V.Pol [2,132] aytganidek, tajriba san'atni yaratgan ..." deya ta'rif berib o'tadi. Mashhur tilshunos N.Barlining xulosasiga ko'ra, "maqolni unga o'xshagan boshqa turdosh shakllar bilan munosabat kompleksidan alohida ko'rib chiqish mumkin emas"[3,13] deb, har bir xalqning maqollar zaxirasi o'ziga xosligini aytib o'tgan. O'zbek xalq maqollari o'zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O'zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Aslida, o'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berilib majmualarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi X.Vamberining 1967-yilda Leypsigda nashr etilgan noyob asarlar qatoriga kiruvchi «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham mukammal tarzda tushunarli qilib berilgan[4,88]. Olimlardan Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o'zlarining "Ma'nolar maxzani" to'plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To'plam 20 ming maqolni o'z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirib o'tilgan [5,120]. Boshqa to'plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Misol tariqasida, "O'zbek xalq maqollari" to'plamida quyidagi mavzu guruhi taqdim etilgan: Vatan va vatanparvarlik; mehnat va mehnatsevarlik; do'stlik va kelishmovchilik; oila va yaqinlar; donolik va johillik; mardlik va insoniylik haqida.

Biz bilamizki, maqollarning shakllanishini tushuntirishda maqollarning vujudga kelishi va qo'llanishidagi assotsiatsiyalar tahlili muhim ahamiyat kasb etib keladi. Ular xuddi formulalar kabi ijtimoiy xarakterga egadir. Maqollardan ko'zda tutilgan maqsad ko'p qirrali va polifonik xarakterga ega bo'lib, uni quyidagicha tip va turlarga ajratish mumkin:

1. Fikrning asoslilikini ta'minlashda metodologik vazifa;
2. Fikrning ifodaviyligini ta'minlashda obrazlilik vazifasi;
3. Fikrning ta'sirchanligi ta'minlashda intensivlik vazifasi;
4. Fikrning "yumshoq"ligini ta'minlashda evfimistik vazifa;
5. Personajlarning qarashlari, ruhiy holatini yorqinroq berishda psixologik vazifa;

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki, maqollar orqali o'zbek xalqining tarixi qadimiyligini, an'analari, milliy-madaniyati, ta'lim-tarbiyasi naqadar kuchli ekanligini ifodalaydi va madaniyatimizning yorqin namunalari maqollarda, hikmatli so'zlarda namoyon bo'lishini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayev, M. O'zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq, 2004.
2. Karimov, N. O'zbek folklorshunosligi asoslari. Toshkent: Fan, 2018.
3. Mieder, W. Proverbs: A handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.

4. Norrick, N. R. Subject area, terminology, proverb definitions. Berlin, 2014.
5. Rahmonov, M. Xalq og'zaki ijodi va uning badiiy xususiyatlari. Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. Soatov B.A. O'zbek xalq maqollarining janr va she'riy xususiyatlari. T.:1990.
7. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1-Tom. – Toshkent: 1960.- 44 b.